

**O'ZBEKISTONDA EKSPORT VA IMPORTNING O'RNI**

*Ilmiy rahbar: Agrologistika va biznes fakulteti Agroiqtisodiyot kafedrası, iqtisodiyot fanlari nomzodi dotsent Ashurmetova Nigora Ozodbekovna*  
*Toshkent davlat agrar universiteti Agrologistika va biznes fakulteti iqtisodiyot yo'nalishi 23-132 inter Muhammadaminov Sarvar Nodirbek o'g'li.*

**Anotatsiya:** Maqolada mamlakatimizda tashqi savdo siyosatining iqtisodiyotni eksport va import rivojlanishidagi o' rni va ahamiyati, xalqaro savdoning rivojlanishi natijasida ishlab chiqarish integratsiyalashuvining kengayishi va takomillashishi, sohada elektrotexnika mahsulotlari eksportining rivojlanish ko'rsatkichlari, elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o' sish sur'atlari, mahsulotlar eksporti geografiyasi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** tashqi savdo , iqtisodiy o' sish , tashqi iqtisodiy aloqalar , elektrotexnika , import , eksport , maishiy texnika , mahsulot hajmi , eksport geografiyasi, mahalliy mahsulotlar.

**Annotation:** In the article, the role and importance of the foreign trade policy in the export and import development of the economy in our country, the expansion and improvement of production integration as a result of the development of international trade, the development indicators of the export of electrical engineering products in the field, the growth rates of the volume of electrical engineering production, the export of products geography is covered.

**Key words:** foreign trade, economic growth, foreign economic relations, electrical engineering, import, export, household appliances, production volume, export geography, local products.

**Аннотация:** В статье рассмотрены роль и значение внешнеторговой политики в экспортно-импортном развитии экономики нашей страны, расширение и совершенствование производственной интеграции в результате развития международной торговли, показатели развития экспорта электротехнической продукции. машиностроительной продукции в области, темпы роста объемов электротехнической продукции, освещена география экспорта продукции.

**Ключевые слова:** внешняя торговля, экономический рост, внешнеэкономические связи, электротехника, импорт, экспорт, бытовая техника, объем продукции, география экспорта, местная продукция.

**Ekspart** — tovarlarni chet ellik mijozlarga sotish bo'lib, bunda mazkur mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar mamlakatdan tashqariga chiqariladi.

**Import** (ing . import — keltirish, olib kelish) — mamlakatning ichki bozorida sotish uchun, shuningdek, ularni uchinchi mamlakatga o‘tkazib yuborish uchun chet el tovarlari, xizmatlar, texnologiyalar, kapitallar, qimmatli qogozlar va b. keltirish. Yuklar, passajirlarni chet eldan tashib keltirish, sayyohlik, sug‘urta, ilmiy-texnika bilimlari va b. xizmatlar harajatlari ham kiradi .

**Tashqi savdo** — bir mamlakatning boshqa mamlakat yoki mamlakatlar bilan olib boradigan savdosi. Mamlakatdan tovarlar chikarish (eksport) va mamlakatga tovarlar kiritish importdan tashkil topadi. Eksport va import yig‘indisi mamlakatning Tashqi savdo aylanmasini tashkil etadi. Mamlakatlar o‘rtasida savdosotiqni rivojlanishi ikki tomonlama foyda olish imkonini beradi. Tashqi savdo mamlakatlararo iktisodiy munosabatlarning eng oddiy va eng kad, shaklidir. Kds.. Misr, Yunoniston va Rim quldorlik tuzumi davridayoq boshqa mamlakatlar bilan ikki tomonlama savdosotiq munosabatlarini amalga oshirgan. Insoniyat tarixida birinchi marta Sharq va G‘arb dunyosini bir-biri bilan bog‘lagan Buyuk Ipak yo‘li kitalararo savdoni yo‘lga qo‘ydi. Bu yo‘l hozirgi O‘zbekiston hududida joylashgan shaharlarda savdosotiqning keng kuloch yoyishiga olib kelgan edi.

O‘zbekiston Respublikasining to‘lov balansi ma’lumotlariga ko‘ra, joriy yilning I yarim yilligi yakunlari bo‘yicha tovarlar bo‘yicha tashqi savdo aylanmasi 16,9 mlrd. dollarni tashkil etgan. Shundan eksport hajmi 6,9 mlrd. dollar va import hajmi 10 mlrd. dollarga teng. Shu munosabat bilan, savdo balansining defitsiti 3,1 mlrd. dollarni tashkil etgan. Ko‘pchilikda shunday tushuncha borki, mamlakat rivojlanishi uchun «eksportni ko‘paytirib, importni cheklash kerak». Sodda qilib aytganda, «biz kamroq sotib olib, ko‘proq sotishimiz kerak», «mahalliy korxonalarimiz, biz import qilganimizdan ko‘ra, ko‘proq eksport qilishi kerak» va h.k. Tashqi savdo balansining saldosu salbiy bo‘lishi, ya’ni importning eksportdan ko‘p bo‘lishi ko‘pchilikni qo‘rqitadi. Oxirgi paytlarda mahalliy korxonalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida, biz tinimsiz importni «bo‘g‘ib» kelayapmiz. Jumladan, turli vazirlik va idoralar tomonidan importni har tomonlama cheklash uchun tarif va notarif choralar qo‘llanmoqda. Go‘yoki, biz shu yo‘l bilan, ya’ni raqobatni kamaytirib, mahalliy korxonalariga o‘zini-o‘zi o‘nglab olib, raqobatbardosh bo‘lishiga zamin yaratayapmiz. Afsuski, unday emas, aksincha ularni raqobatbardoshligini kamaytirayapmiz. Nima sababdan? Sababini quyidagicha nazariy jihatdan ko‘rib chiqamiz. Mahalliy korxonalar eksportini ko‘paytirish uchun ularning mahsulotini raqobatbardosh bo‘lishini ta’minlashimiz kerak. Ma’lumki, agar import kamaysa, valyutaga bo‘lgan talab kamayib, valyuta kursining tushishiga va so‘mning qadri oshishiga olib keladi. Bu esa eksport qilinayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini kamaytiradi. Ya’ni, mahalliy korxonaning 1 dollarga eksport qilayotgan mahsuloti, valyuta kursining tushishi, deylik 9400 so‘mdan 8000 so‘mga tushishi orqali 1,175 dollarga ko‘payishiga olib keladi. Shu orqali mahalliy korxonalar eksport qilayotgan mahsulotlarining

raqobatbardoshligining kamayishiga, bu esa mamlakatda eksport hajmining kamayishiga sabab bo'ladi. Natijada, mamlakat iqtisodiyotida importni qanchalik darajada cheklovini amalga oshirish, eksportni ko'paytirish uchun davlatga shunchalik darajada ko'p resurs talab etilishiga olib keladi. Import tarifini qancha oshirish yoki turli cheklovlarni (standartlashtirish, sertifikatlashtirishga doir va boshqa qo'shimcha tartib-taomillar)ni joriy qilish orqali biz eksportga shuncha soliq joriy etgan bo'lamiz.

Mamlakatdagi horijiy valyuta cheklangan bo'lib, qancha valyuta mavjud bo'lsa, shuncha valyutaga import qilish mumkin. Boshqacha aytganda, qancha eksport bo'lsa, shuncha import qilinadi. Valyuta kursi qanchalik ko'tarilsa, ya'ni valyutaga talab qanchalik ortsa, mahalliy korxonalarda shunchalik eksportga rag'bat ortadi. Natijada, eksport hajmi oshib mamlakatga horijiy valyuta kirib keladi va kurs muvozanatini bozorning o'zi ta'minlaydi. Iqtisodiyotda import hajmi eksportdan qancha ko'p bo'lsa, valyutaga bo'lgan talab oshadi va mamlakatga valyuta (kapital) oqimi shuncha ko'p bo'ladi. Teskari tushuntiradigan bo'lsak, import hajmining ko'payishini eksport hajmi o'sishi bilan qoplaydi. O'z navbatida, importning o'sishi tabiiy jarayon bo'lib, ya'ni arzon tovarlarning ko'payishi aholining ushbu tovarlarga bo'lgan ehtiyojini ortishiga olib keladi. O'zbekiston Respublikasi to'lov balansi ma'lumotlariga muvofiq, qisqa muddatga xorijga mexnat faoliyatini amalga oshirish maqsadida chiqqan O'zbekiston fuqarolari tomonidan olingan ish haqi 2019 yilning I yarim yilligida, 1,4 mlrd. dollarni tashkil qildi. O'zbekistonga o'tkazilgan shaxsiy transfertlar miqdori esa 2,4 mlrd.dollarni tashkil etgan. Shu bilan birga, mamlakat iqtisodiyotiga chet el valyutasi oqiminining yana boshqa manbalari, ya'ni xorijdagi migrantlarning pul o'tkazmalari va boshqalarning ko'payishi tabiiy ravishda import hajmini oshiradi. Yuqorida aytilganidek, mamlakatda horijiy valyuta hajmining ortishi uning kursi tushishiga olib keladi. Natijada, tovarlar eksportiga rag'bat kamayadi. Biz ushbu muammoni ham import hajmini keskin oshirish bilan qoplashimiz lozim bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi to'lov balansi ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yilning II-choragida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning sof kirib kelishi keskin o'sishni ko'rsatib, uning hajmi 923 mln. dollarga yetdi (joriy yilning I-choragiga nisbatan 4 baravarga ko'paygan). Ushbu ko'payish to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmining ortishi bilan bog'liq bo'lgan.

Shuningdek, boshqa jihatdan, mamlakatimizga horijiy investitsiyani kirib kelishi ham import hajmini oshiradi va mantiqan, agar biz savdo balansidagi difitsitni qisqartirish uchun kurashadigan bo'lsak, import hajmini kamaytirish uchun xorijiy investitsiyani cheklab turishimizga to'g'ri keladi, degan xulosa qilish mumkin.

Barcha mamlakatlarning tashqi iqtisodiy faoli- yatga bevosita va bilvosita aralashuvi jarayoni eks- port va import hajmi va tarkibiga ta'sir ko'rsatish orqali ichki bandlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishga erishish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, to'lov balansini yaxshilash hamda valyuta kursini tartibga solish

maqsadlarini ko'zda tutadi. 2023 yilning yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi (TSA) \$14,8 milliardni tashkil etib, 2022 yilning mos davriga nisbatan \$1,6 milliardga yoki 11,9%ga oshdi. Bu haqda Davlat statistika qo'mitasi matbuot xizmati xabar bermoqda.

Tashqi savdo aylanmasida eksport hajmi \$5,7 milliardga (2022 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 2,6%ga kamaydi) va import hajmi \$9,1 milliardga (23,4%ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida \$3,4 milliard qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi<sup>1</sup>. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan 3 ta davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Afg'oniston, Qirg'iz Respublikasi va Tojikiston davlatlari shular jumlasidandir. Qolgan 17 ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi global muammolarni hal etishda muhim rol o'ynaydigan, yaqin mintaqaviy qo'shni Xitoy bilan strategik hamkorlikni kuchaytirish tarafdori. Xitoy bilan munosabatlarni rivojlantirish 2012-yil 6-iyundagi Strategik hamkorlikni o'rnatish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya, 2013-yil 9-sentabrda ikki tomonlama strategik hamkorlikni yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish to'g'risidagi deklaratsiyasi hamda 2017 yil 12 maydagi Har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish to'g'risida qo'shma bayonotga asoslangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2019-yil 24-27 aprelda «Bir makon, bir yo'l» Ikkinchi xalqaro forum doirasida ilgari surgan tashabbus va takliflarni to'liq va o'z vaqtida amalga oshirish ikki mamlakat manfaatlariga mos keladi.

Respublikamiz ko'p asrlik umumiy tarix, yagona til va din, umumiy qadriyatlar va o'xshash urf-odatlarga ega bo'lgan Turkiya davlati bilan do'stlik va hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan siyosatni izchil davom ettiradi. Mamlakatimiz Turkiya bilan har taraflama manfaatli hamkorlikni, jumladan savdo-sotiq, investitsiya va turizm kabi sohalarni rivojlantiradi. Osiyo-Tinch okeani hududi mamlakatlari, xususan Koreya Respublikasi va Yaponiya bilan hamkorlik O'zbekiston tashqi siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi. O'zbekiston ushbu davlatlar bilan investitsiya, savdo-sotiq, yuqori texnologiyalar, madaniy-gumanitar sohasidagi keng qamrovli hamkorlikni davom ettiradi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi jahonning 167 ta yirik davlati bilan savdo munosabatlarni o'rnatgan. Tashqi savdo aylanmasining nisbatan salmoqli hissasi Xitoy (15,9%), Rossiya (15,1%), Qozog'iston (7,5%), Turkiya (5,6%), Germaniya (4,6%), Janubiy Koreya (4,1%) va Turkmaniston (1,8%) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

So'nggi yillarda tashqi savdoni rivojlantirish, uning barqarorligini ta'minlash va eksportni rag'batlantirish maqsadida, mamlakatda bir qator huquqiy-meyoriy xujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tashqi savdo faoliyatini yanada erkinlashtirish va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3351-sonli qarori [3], O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining "Tashqi savdo faoliyati ishtirokchilarini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-97-son Farmoni [4], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida tashqi savdo faoliyatini erkinlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 137-sonli [5] hamda "O'zbekiston Respublikasida tashqi savdo operatsiyalari monitoringini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 283-son qarorlari [6] misol qilishimiz mumkin.

Iqtisodiy adabiyotlarda bu mavzuga doir tadqiqotlarda mamlakat eksport hajmining barqaror o'sishida, uning tarkibida yuqor texnologiyali mahsulotlarning ulushi oshishida importning ham muhim ahamiyatga ekanligi qayd etilgan. Import, eksport va mamlakat iqtisodiy rivojlanishi o'zaro bog'liq. Ochiq iqtisodiyot mamlakatning xalqaro munosabatlarini rivojlantirishga qulaylik yaratib, mamlakatda raqobat va export potentsialini oshiradi. Shu bilan birga, mamlakatda ma'lum resurslarning mavjud emasligi ishlab chiqarishni sekinlashtirishi va eksport imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Import mamlakatga eksport tovarlarini ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan har xil turdagi xom ashyo, texnologiyalar va butlovchi qismlardan foydalanish imkoniyatini beradi. Shuningdek, mamlakatga yangi materiallar yoki tayyor mahsulotlarni import qilish orqali mamlakatning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshiradi va boshqa mamlakatlardan zamonaviy texnologiyalarni olib kirish imkonini beradi, yangidan yangi ish o'rinlari yaratiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. <https://strategy.uz/index.php?news=668&lang=uz>
2. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Eksport>
3. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tashqi\\_savdo](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tashqi_savdo)
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/tashqi-savdo-siyosatini-mustahkamlash-va-eksportni-rag-batlantirishda-elektrotexnika-sanoati-mahsulotlarining-rol-i-va-ahamiyati>
5. <https://universalpublishings.com/index.php/jsiru/article/view/5203>